


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT ARHITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**



**“QURILISHNI TASHKIL ETISH, REJALASHTIRISH VA BOSHQARISH”
fanidan Universitet talabalar onlayn fan olimpiadasini tashkil etish
NIZOMI**

Talabalar onlayn fan olimpiadasini o'tkazish dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 24.11.2023 yilgi 507-sonli buyrug'i hamda universitet rektorining 2023 yil 28 noyabrda 347-son buyrug'iga asosan tuzilgan bo'lib **5230200**-“Menejment” ta'lim yo'nalishi talabalarining “Qurilishni tashkil etish, rejalashtirish va boshqarish” fani bo'yicha bilimi va ko'nikmalarini baholash uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchilar: I.A.Usmonov - “Biznesni boshqarish” kafedrasini porofessor v.b.
X.T.Buriyev - “Biznesni boshqarish” kafedrasini porofessor v.b.
U.A.Muxammadiyev - “Biznesni boshqarish” kafedrasini dotsent

Kafedra mudiri:

R.M.Egamov

Fakultet dekani:

M.X.Eshmurodov

Talabalar bo'limi boshlig'i

*F.Isrofilov

Onlayn olimpiadaning hakamlar hay'ati tarkibi:

X.M. Eshmurodov	- Rais,
R.M.Egamov	- Rais o'rinbosari,
A.S.Suyunov	- a'zo,
X.T.Buriyev	- a'zo,
U.A.Muxammadiyev	- a'zo,
Sh.N.Jumanov	- a'zo,
Z.A. Mirzayev	- a'zo, kotib

Onlayn olimpiadaning appilatsiya hay'ati tarkibi:

1. Usmonov Ilxom Achilovich - Rais
2. Buronov Olmos Buronovich - a'zo,
3. Abdusamatov Baxtiyor Karoboyevich - a'zo,
4. Karjavov Zayniddin - a'zo,
5. Raxmonova Feruza Musakulovna - a'zo,

I BOB. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur dastur talabalar o'rtasida Universitet onlayn fan olimpiadasini (keyingi o'rinlarda Olimpiada deb yuritiladi) tashkil etish, o'tkazish hamda olimpiada g'oliblarini aniqlash tartibini belgilaydi.

1.2. Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti “Biznesni boshqarish” kafedrasini mas'ul hisoblanadi.

1.3. Olimpiadani tashkil etish yuzasidan rektorning buyrug'i asosida universitet talabalar o'rtasida o'tkaziladigan fan olimpiadasini onlayn shaklida o'tkazish bo'yicha tasdiqlangan tashkiliy qo'mita barcha tashkiliy choralarini ko'radi.

1.4. Tashkiliy qo'mita olimpiadaning tashkiliy-texnik va axborot tizimlarini tashkil etish, olimpiada g'oliblari va ishtirokchilarini rag'batlantirish vazifalarini ta'minlaydi.

1.5. Olimpiada “Qurilishni tashkil qilish va boshqarish” fanidan test shaklida o'tkaziladi.

1.6. Olimpiadaning adolati o'tkazilishini nazorat qilish hamda natijalarini tahlil etish universitetning Sifat nazorati bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.

II BOB. FAN OLIMPIADASINI ONLAYN O'TKAZISH TARTIBI

- 2.1 Olimpiada talabalarining qishki ta'til kunlari o'tkaziladi.
- 2.2. Olimpiada ishtirok etuvchi talabalar tashkiliy qo'mita tomonidan belgilangan kunlari universitetning maxsus ochilgan portali (kanali) orqali tanlagan fani bo'yicha elektron ro'yxatdan o'tadilar.
- 2.3. Olimpiadada "menejment" ta'lim yo'nalishining kunduzgi 4-chi bosqich va sirtqi 5-bosqich talabalari qatnashishi ko'zda tutiladi.
- 2.4. "Qurilishni tashkil qilish va boshqarish" fani bo'yicha ro'yxatdan o'tgan talabalar sonidan kelib chiqqan holda, olimpiadani o'tkazish sanasi va vaqti bo'yicha jadval shakllantiriladi va 2023 yilning 26 dekabr kuni portalga joylashtiriladi.
- 2.5. Elektron ro'yxatdan o'tgan talabalarni shaxsini tasdiqlash ishlari tashkiliy qo'mita tomonidan joriy yilning 25-26 dekabr kunlari amalga oshiriladi.
- 2.6. Talabalar "Qurilishni tashkil qilish va boshqarish" fani bo'yicha olimpiadani o'tkazish sanasi va vaqti bo'yicha portaliga kiradilar va ularga 25 dona test savollari taqdim etiladi.
- 2.7. Olimpiada o'tkazilgan "Qurilishni tashkil qilish va boshqarish" fanidan test topshiriqlari 2023 yil 26 dekabrda soat 10.00 dan 16.00 gacha talabalar kirish uchun ochib beriladi.
- 2.8. Olimpiada ishtirokchilarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyati va qurilmalaridagi texnik nosozliklar bo'yicha shikoyat va arizalar ko'rib chiqilmaydi.

III BOB. BAHOLASH MEZONI VA BELGILANGAN VAQT

- 3.1. «Qurilishni tashkil qilish va boshqarish» fani bo'yicha o'tkaziladigan onlayn talabalar fan olimpiadasida savollarga javob berish uchun 50 daqiqa vaqt ajratiladi.
- 3.2. Test savollarining har bir to'g'ri javobi "to'rt" ball bilan baholanadi. Jami to'plash mumkin bo'lgan ballar soni 100ga teng.
- 3.3. Eng ko'p ball to'plagan 3 nafar talaba g'olib deb hisoblanadi va tegishli ravishda 1-chi, 2-chi va 3-chi darjalari diplom bilan taqdirlanadi. G'oliblarni taqdirlash marosimi 2024 yil 10 yanvar kuni o'tkaziladi.
- 3.4. Bir xil ball to'plagan talabalar tegishli darajali diplomga loyiq deb hisoblanadi.
- 3.5. Olimpiada o'tkazish tartibi bo'yicha nizolar va takliflar tashkiliy qo'mita tomonidan o'rganib chiqiladi qonuniy jihatdan hal qilinadi.

IV BOB. "QURILISHNI TASHKIL QILISH VA BOSHQARISH" FANIDAN OLIMPIADA DASTURI

- 4.1. "Qurilishni tashkil qilish va boshqarish" fanidan onlayn olimpiada savollari mazkur fanning dasturi va sillabusida joy olgan quyidagi mavzular mazmuni bo'yicha tuzilgan:

- Qurilishda tayyorgarlik ishlari;
- Qurilishda oqim usullarini qo'llash;
- Qurilishni tashkil etish rejasi;
- Qurilishda tarmoqli modellarni tuzish va hisoblash;
- Qurilish majmuasi va aloxida ob'ektlarning kalendar rejalari;
- Qurilish bosh tarxi va uning tarkibi.

- 4.2. Talabalarining amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida test savollariga nazariy savollar bilan bir qatorda masalalar ham qiritilgan.

